9. Qiyosiy tadqiqotlar zarur. Bir til doirasida konseptni to‘liq tushunish qiyin. Qiyosiy tahlil universal va spesifikni ajratishga yordam beradi.

10.Korpus va assotsiativ ma’lumotlar muhim. Zamonaviy empirik metodlar (korpus lingvistikasi, assotsiativ eksperiment) konseptning real psixolingvistik va madaniy realligini ko‘rsatadi.

11.Madaniyat tipologiyasi. Individualistik madaniyatlar (ingliz): shaxs ustuvorligi; kollektivistik madaniyatlar (o‘zbek): jamoa ustuvorligi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “uy” konsepti har bir madaniyat uchun markaziy, axloqiy va ruhiy jihatdan muhim tushuncha hisoblanadi. Uni o‘rganish orqali milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tuzilma, madaniy an’analar haqida chuqur bilim olish mumkin. Qiyosiy lingvokulturologik tadqiqotlar tillar va madaniyatlar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni tushunishga, madaniyatlararo muloqotni samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие, М., “Академия”, 2001, 208 с.

(2). Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. М., РУДН, 2008. 336 с.

(3). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., Школа “Языки русской культуры”, 1996, 288 с.

(4). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, “Перемена”, 2002, 477 с.

(5). Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. М., АСТ, 2007, 314 с.

(6). Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. М., “Языки славянской культуры”, 2001, 288 с.

(7). Степанов Ю.С. Константы. “Словарь русской культуры”, 3-е изд., М., Академический проект, 2004, 992 с.

(8). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York: Oxford University Press, 1997, 328 p.

(9). Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. М., УРСС, 2004, 256 с.

(10). Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. М., “Гнозис”, 2002, 284 с.

(11). Porubay I.F., Nishanova Z.T. An Analysis of The Concepts Of “Home” And “Family” In the English Language. American Journal of Philological Sciences. 2025, vol. 5, № 1, p. 12–18.

(12). Hofstede G., Hofstede G.J., Minkov M. Cultures and Organizations. 3rd ed., New York, McGraw-Hill, 2010, 576 p.

Mirzayeva Gulnozaxon Ilxamovna (Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi; e-mail: aasadbek5577@gmail.com)

O‘ZBEK TILIDA “BOYLIK VA KAMBAG‘ALLIK” LEKSEMALARINING SIMMETRIK VA ASIMMETRIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Keyingi yillarda tilshunoslikdagi simmetriya va asimmetriya kategoriyalarini o‘rganish nafaqat tilning negizini ko‘rish, ma’lum bir xalqning milliy-mentalital stereotiplarini tushunish imkoniyatini ham beradi. Ushbu maqola tilshunoslikdagi simmetriya va asimmetriya nazariyasi til sohiblariga ma’lum bir sohada ishlatiluvchi leksik birikmalarning asosiy jamg‘armasini butun ko‘lami bilan anglash, muloqot jarayonida ulardan eng zarurlarini qo‘llash, leksik birikmalarning bir-birlari bilan mazmuniy jihatdan bog‘lanishi hamda o‘zbek tilida “boylik/kambag‘allik” leksemalarining simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *boylik, kambag‘allik, simmetriya, asimmetriya, leksema, paradigmatik, sintagmatik, miqdor kategoriyasi, konsept.*

Мирзаева Гулнозахон Илхамовна (старший преподаватель Андижанского государственного университета; e-mail: aasadbek5577@gmail.com)

СИММЕТРИЧНЫЕ И АСИММЕТРИЧНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛЕКСЕМ «БОГАТСТВО И БЕДНОСТЬ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В последние годы изучение категорий симметрии и асимметрии в лингвистике не только позволило увидеть основы языка, но и понять национально-ментальные стереотипы конкретного народа. Цель данной статьи – помочь носителям языка понять весь спектр основных лексических сочетаний, используемых в данной области, применять наиболее необходимые в процессе общения, определить семантическую связь лексических сочетаний друг с другом, а также выявить симметричные и асимметричные характеристики лексем «богатство/бедность» в узбекском языке.*

Ключевые слова: *богатство, бедность, симметрия, асимметрия, лексема, парадигматическая, синтагматическая, количественная категория, концепт.*

Mirzaeva Gulnozakhon Ilkhamovna (Senior teacher, Andijan State University; e-mail: aasadbek5577@gmail.com)

SYMMETRICAL AND ASYMETRICAL CHARACTERISTICS OF THE LEXEMES "WEALTH-POVERTY" IN UZBEK LANGUAGE

Annotation. *In recent years, the study of the categories of symmetry and asymmetry in linguistics has not only allowed us to understand the foundations of language but also the national and mental stereotypes of a particular people. The goal of this article is to help native speakers understand the full range of basic lexical combinations used in this area, apply the most essential ones in communication, determine the semantic relationships between lexical combinations, and identify the symmetrical and asymmetrical characteristics of the lexemes "wealth/poverty" in the Uzbek language.*

Keywords: *wealth, poverty, symmetry, asymmetry, lexeme, paradigmatic, syntagmatic, quantitative category, concept.*

Kirish (Introduction). Ma'lumki, "simmetriya va asimmetriyaga taaluqli dastlabki tasavvurlar o'z ildiziga ko'ra, mifologik va diniy qarashlarga asoslangan bo'lib, o'nglik va chaplikni sifatiy jihatdan farqlashga, ularni, ayniqsa, tildagi ifodalanishida aksiologik munosabatni yuzaga keltirib, ijobiy (musbat) va salbiy (manfiy) xarakteristikalarga ega bo'lgan" [1;291-b.].

"Boylik va kambag'allik" leksemalarini simmetrik va asimmetrik tahlili deganda invariant "boylik va kambag'allik" arxisemasi atrofida birlashgan, ushbu maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan, turlicha morfologik va sintaktik tuzilish va qolipga ega, invariant ma'noga turli darajada yaqin yoki distant (bosh ma'nodan uzoqlashgan) ma'noviy aloqada bo'lgan, bir va undan ortiq simmetrik ma'noga ega, mono yoki polifunksional, o'zaro paradigmatik va sintagmatik aloqalarda bo'lib, vazifasiga qarab, faol va nofaol, ifodalilik jihatidan esa turlicha bo'yoq xususiyatlariga ega til birliklari sistemasini tushunamiz.

Simmetrik ma'nodagi "boylik va kambag'allik" leksemalari mazmun va ifoda planiga ega. Simmetriya va asimmetriyaning mazmun plani deganda umumiy "boylik va kambag'allik" arxisemasi bilan aloqador yaqin va uzoq integral va differatsial semalar majmuini tushunamiz. Simmetriya va asimmetriyaning ifoda plani deganda tilning fonetik, leksik, grammatik qonun-qoidalari imkoniyatlari doirasida shakllangan, og'zaki va yozma nutqqa xos, vizual va audial shakllariga ega "boylik va kambag'allik" umumiy ma'nosi atrofida birlashgan turli leksik birliklarni tushunamiz.

O'zbek tilida "boylik va kambag'allik" leksemasini simmetrik ma'nosi asosida bir maydonga jamlangan, alohida paradigmatik qatorlarni tashkil etuvchi til birliklarining lisoniy mazmun xususiyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek tilida "boylik va kambag'allik" leksemalarining simmetrik va asimmetrik ma'nolarini o'rganishda, ularning etimologik kelib chiqishiga e'tibor qaratdik. Natijada ushbu leksemalar bilan bog'liq juda ko'plab qiziqarli ma'lumotlar borligi aniqlandi.

Biz "boylik va kambag'allik" konseptini E.Begmatov, A.Madvaliyevlar tahriri ostida chiqarilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'zbek tilida "boylik va kambag'allik" otlari turli simmetrik va asimmetrik ma'nolarni o'z ichiga olib, ko'p sonli so'zlar oilasining semantik markazi sifatida xizmat qiladi. Avvalo, "boylik" so'zining lug'atdagi ta'rifiga ko'ra, *"boy bo'lish, boy mavqyei, mol-mulk to'plami, majmuyi, mo'llik"* degan ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu lug'atning (1-jildi)da ot so'z turkumidan "boylik" so'zining quyidagi asosiy ma'nolari keltiriladi:

1. Dunyo, davlat, mol-mulk. Masalan: *O'n olti ming qo'y, ikki yarim ming yilqi hazilakam boylik emas* (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar").

2. Tabiiy, moddiy resurslar majmuyi. Yer *osti boyliklari. Moddiy boyliklar. Tabiiy boyliklar. Qazilma boyliklar. O'lkamiz tabiiy boyliklarini o'rganish.. ishiga nufuzli olimlarimiz salmoqli ulush qo'shmoqdalar* (Gazetadan).

3. Aqliy, ruhiy, ma'naviy faolyat hosilasi, majmuyi. Masalan: *Xalq o'z tilini eng ulkan milliy boylik sifatida asrash kerak* (Gazetadan).

4. Iqtisodiy jihatdan mustahkam, hech narsadan kamchiligi, muhtojligi yo'q, to'kis, badavlat. Masalan: *Yurt boy bo'lsa, uning bozori ham to'kin bo'ladi* (U.Normatov, "Talant tarbiyasi").

Berilgan ta'riflarga qo'shimcha tarzda yana bir lug'at ma'lumotlarini qo'shish mumkin. Z.M.Ma'rufovning 1981-yilda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ot so'z turkumiga kiruvchi boylikning qo'shimcha quyidagi ma'nolarini kuzatamiz:

• Tarkibida, bag'rida kerakli va foydali narsalar ko'p, mo'l. Masalan: *Temirga boy ruda. Yeri boyning eli boy* (maqol).

• Boyga murojaat yoki ular haqida so'z borganda, ularning nomi o'rnida yoki nomiga qo'shib ishlatiladi. Masalan: *Boy ota! Bu gapni bir atdingiz, yana qaytib gapirmang!* (Hamza, "Boy ila xizmatchi").

• Kishi ismining tarkibiy qismi bo‘lib keladi: *Boltaboy, Teshaboy, Jumaboy.*

• Boytevat *(Boyning sodiq xizmatkori, boyga qulluq qiluvchi) molparast.*

• Boytuzoq *(qush tutish uchun qildan yasalgan maxsus tuzoq).*

• Boyxalcha *(Zirkdoshlar oilasiga mansub, yaprog‘i panjasimon qirqilgan, tugunak ildizli ko‘p yillik o‘t).*

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Shuningdek, “boylik” leksemasini simmetrik va asimmetrik ma’nosida muqaddas kitoblarning qo‘hna vasiyatlari tahlili so‘z boyligida ko‘p marta ishlatilib, moddiy va ma’naviy boylik,degan xulosaga kelish imkonini beradi. “Boylik” leksemasi bilan bir qatorda, katta xazina, oltin, kumush, qoramol, qullar, tuyalar, qo‘ylar, eshaklar kabi moddiy boylik bilan bog‘liq boshqa iboralarni ham topish mumkin. Misol uchun: *“U odamga ko‘pgina qoramollar, qullar, tuyalar, va eshaklarni berdi va u juda boy bo‘ldi”* [Hadisdan].

Ko‘hna vasiyatlarda “boylik” miqdor kategoriyasining ifodasi bo‘lib (ko‘pgina podalar, katta mulk), turli o‘lchov birliklariga ega: misqol kumush, oltin, denar, xazina. *Misol uchun: “Mana, akangga ming misqol kumush berdim...”* [Gazetadan].

Ko‘hna vasiyatlarda “boylik” leksemasini simmetrik va asimmetrik ma’nolari bo‘lmish moddiy boylik va ne’mat o‘rtasidagi tenglik belgisi juda aniq ko‘rsatilgan. Boylikning simmetrik va asimmetrik talqini materiali boylik haqida o‘ylash bilan cheklanmaydi, zero, boylik materialdan tashqari, ma’naviy boylik ham mavjud. Shuning uchun, allaqachon sanab ma’naviy boylikdan tashqari (iymon, sevgi, o‘z-o‘zini inkor qilish, bilim, donolik, saxiylik, do‘stlar, va hokazolar berilgan), Muqaddas bitiklarda ma’naviy boylik bilan bog‘liq metaforik birikmalar mavjud. Shu o‘rinda yangi vasiyatlarda boylik leksemasining simmetrik ma’noda “mehmondo‘stlik”, “hikmat va ilm boyligi”, “mukammal tushunish boyligi”, “qalbning yaxshi xazinasi” kabi muvofiqliklarini kuzatish mumkin. Misol uchun: *“Yaxshi odam qalbning yaxshi xazinadir, u yaxshi narsalarni chiqaradi...”* [Hikmatlar to‘plami].

Diniy kitoblarda taqdim etilgan “boylik” leksemasining simmetrik va asimmetrik bayonotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir tomondan, “boylik” Xudo tomonidan ishonib topshirilgan omonat bo‘lib, uni to‘g‘ri yo‘lda ko‘paytirish kerak. Bu mahorat Xudoga bag‘ishlangan va uning targ‘ib qilishga xizmat qilsa, yaxshi simmetrik natijadir. Boshqa tomondan, boylik yovuzlik asimmetrik manbai va Xudoning shohidligi uchun insonning yo‘lida to‘siq bo‘lishi mumkin. Diniy kitoblarda berilishicha, “boylik”ka ega bo‘lish Xudo yo‘lida simmetrik mazmunda ishlatilmasa, bu xazinalar muammolarni olib keladi. Muqaddas kitobda xudbinlik asimmetrik maqsadida Xudo tomonidan ishonib topshirilgan qadriyatlardan foydalanish mumkin emas, deyilgan. Bu Xudoga qarshi gunoh ish bo‘ladi va oxir-oqibat qiyinchiliklarni olib keladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). “Boylik” leksemasining simmetrik tushunchasi nafaqat moddiy holatni, balki insonning ma’naviy qadriyatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shunga ko‘ra, ushbu tushunchalar ikkiga bo‘linadi:

1. Simmetrik va asimmetrik mazmunga ega moddiy boylikni ifodalaydigan leksemalar: ye*r-suv, binolar, mol-mulk, oltin-kumush, marvaridlar, xazinalar, qo‘ylar, eshaklar, tuyalar, qoramol podasi, xizmatkorlar, qullar, dinor, pulga muhabbat, qullik, qaramlilik.*

2. Simmetrik va asimmetrik mazmunga ega ma’naviy boylikni ifodalovchi leksemalar: *iymon, o‘z-o‘zini inkor qilish, sevgi, ergashish, dunyoviy erkinlik, donolik, yaxshi nom, shuhrat, baraka, sodiq do‘stlar, yaxshi munosabatlar, fazilat, tinch hayot, mehmondo‘stlik, ulug‘vorlik samoviy xazinalar, qalb xazinalari. yaxshilik, allohning himmati, tuhfasi, marhamati, ahillik.*

Biz ushbu ikki guruhni kichkina guruhlarga bo‘lib o‘rganishni lozim topdik. Unda “boylik” leksemasi moddiy davlatning in’ikosi sifatida ishlaydi (tasniflash moddiy boylikning mavjudligi, yo‘qligi tamoyili asosida amalga oshirildi, shuningdek, boylikka ega bo‘lish va uni yo‘q qilish usullari (asimmetrik) va qonunlari. U 5 ta kichik guruhlarni o‘z ichiga oldi:

1) boylikka ega bo‘lish: *hashamatli, dabdaba, savlat; ko‘tarinki*. Masalan: *Akbarali boylik to‘plab ... qachondir Hindistonga sayohat qilishini orzu qiladi, tilagiga yetdimikan?* (X.Sultonov. “Onamnimg yurti”);

2) boylikni tasarruf qilish: *isrof, sovurish, samarasizlik, nobudgarchilik, behuda sarflash, ortiqcha sarf-harajat, ortiqchalik, xarojat, talon-toroj: Tejam bilan ishlatsang, uy ro‘zg‘oring but. Isrof bilan ishlatsang, yomon kunni kut* (“Qanotli so‘zlar”).

3) boylikning xususiyatlari: *halollik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, adolat, poklik, vijdonlilik, qimor, insoflilik, sahiylik.* Masalan: *Men mavizni tamom shar’iy qilib tayyorlayman, tunov kuni mahallamizning boylari halolligiga fatvo berib ketdilar* (A.Qodiriy. “O‘tgan kunlar”);

4) boylik “falsafasi” (axloq qoidalari): *hisob-kitobli pul, tejab ishlatiladigon boylik, xalq boyligi, halol-harom boylik.*

Ikkinchi guruhga "boylik" insonning shaxsiy sifatlari va jamiyatning qadriyat tizimi bilan bog'liq holda qaraladi. Moddiy boylikning o'zbek mentalitetiga xos ma'naviy qadriyatlarga qarama-qarshiligi, boylikning simmetrik va asimmetrik tomonlari hamda unga nisbatan ziddiyatli munosabatga asoslanadi. O'zbek tilida bu guruh quyidagi kichik guruhlar bilan ifodalanadi:

1) boylik – bu sevgi: *muhabbat, xudbin, g'amho'rlik, ollohga muhabbat va h.k. Masalan: Otam bo'lmasangiz ham, meni otalik muhabbati bilan sevgan sodiq va mehribon kishimsiz, ya'ni ma'naviy otam* (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar");

2) boylik – bu do'stlik: *haqiqiy, chin, sadoqatli, mehribon. Masalan: Haqiqiy do'stda insonning eng yaxshi xislatlari mujassamlashgan bo'ladi* (Gazetadan);

3) boylik – bu salomatlik: *sog'liging–boyliging, to'rt muchasi sog', sog'lom fikr, tetik;*

4) boylik –\bu qadriyatlar (aql, qadr-qimmat, baxt): *yaxshi gap, baxtli bo'lish, orzusiga yetish, uddalash;*

5) boylik–bu kuch-qudrat: *tillo, mart, noyob, go'zal, yagona. Masalan: Noyob talant egasi bo'lgan Yusufjon qiziq o'z xalqining aziz farzantlaridan biridir* (T.Obidov. "Yusufjon qiziq");

6) boylik–bu ijodiy akliy faoliyat mahsuli: *adabiy, badiiy, ilmiy, kashfiyotlar, eshittirishlar; Masalan: Navoiy hayoti yo'lida yozgan barcha adabiy boyliklarini yosh avlodga qoldirgan buyuk siymodir* (Oybek, "Navoiy");

7) boylikka zid baho: *noloyiq, nomunosib, munofiq, ajdar va h.k. Masalan: Boylarni sodda xalqni aldab, ularni halol mehnatlarini qadrsizlash munofiqlikdir* (M.Ismoiliy. "Farg'ona t.o.").

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, biz o'zbek tilida "boylik" leksemasini ma'nolariga birlashgan lisoniy birliklarni quyidagi modellarini ishlab chiqdik.

1) N yoki Adj (sodda tuzilishga ega bir o'zakli so'zlar);
2) N + N = N (ikki ot o'zakli qo'shma so'zlar);
3) Adj – N = WC (bir sifat va bir otdan iborat so'z birikmasi);
4) N + N + V = WC (ikki ot, bir fe'lli so'z birikmasi);
5) N + ga (-da, -dan, -i, -ni, -ning) + V = WC (kelishik va egalik suffiksli ot va fe'lli so'z birikmasi);
6) N + suffix = Adj (bir ot va bir suffiksli yasama so'z).

"Boylik" leksemasining simmetrik va asimmetrik strukturasiga e'tiborni qaratsak, unda ta'kidlash kerakki, mazkur tadqiqot ob'ekti ko'plab kichik mikrokonseptlardan tashkil topgan bo'lib, ular insonning hayotdagi boylik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Simmetrik aspektdagi "boylik" tushunchalari tarkibiga kiruvchi har bir mikrokonsept o'zbek tilida o'zining leksik, frazeologik birliklari miqyosida keng qamrovligi bilan farq qiladi.

Shuningdek, "kambag'allik" leksemasining simmetrik va asimmetrik ma'nolarini E.Begmatov, A. Madvaliyevlar tahriri ostida chiqarilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni o'rganib chiqdik. Ot so'ziga mansub "kambag'allik" leksemasi quyidagi simmetrik va asimmetrik ma'nolarni ifodalanishining guvohi bo'ldik. "Kambag'al" so'zi o'zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan bo'lib, uning asl ma'nosi "qashshoq, yo'qsil" deb ifodalanadi. Biz, shuningdek, "kambag'allik" konseptining ketma-ket ma'nolarini o'rgandik:

• hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati. Masalan: *Bir kuni ona bechorazor yig'lab, Xudoga nola qildi: "Kambag'allik qursin, kambag'allik... E Xudo, qanday gunoh qildikki, bizni bunchalar qaqshatasan?"* (K.Yashin, "Hamza");

• yetarli bo'lmagan; kam, yetishmaydigan;

• ko'chma s.t. Mushkul yoki ayanchli ahvolga tushib qolgan kishi; *sho'rlik, boyoqish bechora.*

"Kambag'allik" leksemasini simmetrik va assimetrik ma'nolar ketma-ketligini o'rganib, quyidagi uchta guruhga bo'lib chiqdik:

1) kambag'allik tasarruf qilish: *qashshoq, gado, devona: Masalan: Qiziq ekansan... bu yerdagilar hammasi gadoydan non tilaydigan qashshoqlar* (Oybek, "Tanlangan asarlar");

2) kambag'allik xususiyatlari: *zorlik, yetishmovchilik, zorillamoq (qattiq iltimos qilmoq), nola, zorintizor: Masalan: "Balki o'z yolg'izligi, bekorchiligidan zerikib, buning ustiga ro'zg'or yetishmovchiligidan siqilib, xafagazak bo'lgandir" deb o'ylab qoldi Kamol* (H.Nazir, "Ko'kterak shabadasi");

3) kambag'allik falsafasi: *shukronalik, sabrlilik, qanohatlilik, chidamlilik: Masalan: Ertasiga kampir bu sevinch-quvonchlarning shukronasiga xotin-xalajni yig'ib, mushkulkushob o'qittirdim* (G'ayratiy, "Dovdirash").

O'zbek tilida "kambag'allik" leksemasining simmetrik va asimmetrik tahlil qilishda quyidagi parametrlarga ega degan xulosaga keldik:

1) kambag'allik – qadriyatlarning mavjudligida namoyon bo'ladigan insoniy holat; *Butun bir millatning qadryatlari toptalsa, yo'qola boshlasa, bu o'sha xalqning qashshoqli belgisi hisoblanadi* (Gazetadan);


2) kambag‘allik – mehnat va sinovlar qiymatining oshishi; *Bechora Oqila, kambag‘al bo‘lsa ham, o‘zi juda halol, mard va mehnatkash, bolalarga juda mehribon...* (A.Qahhor, “Og‘riq tishlar”);

3) kambag‘allik – halol va mahnatlari evaziga topilishi mumkin bo‘lgan ozginagina sarmoya; *Kolxoz raisi umri kambag‘allik va yetimlik bilan o‘tgan halol odam* (Sh.Rashidov, “Bo‘rondan kuchli”);

4) kambag‘allik – baxt va zavq olib kelishi mumkin; *Shahzoda saroyni shoxona hayotidan, oddiy odamlarning, kambag‘allarning hayotini havas qilardi* (“Shoh edip”. Asqad Muxtor);

5) kambag‘allik – tashvish va azob ham beradi; *Yo‘lchi qachon kelarkan, kelganda ham nima qilardi, bo‘zbola, kambag‘al* (Oybek, “Tanlangan asarlar”).

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, kambag‘allik leksemasini simmetrik asosini tashkil etuvchi guruhlar chizmasini ifodalashga harakat qilamiz.



Shuni alohida ta’kidlash joizki, kambag‘allikka oid leksemalarning aksariyati zamonaviy o‘zbek tili uchun xos bo‘lgan so‘z yasashning yangi usuli bo‘lmish semantik usul orqali hosil bo‘ladi. So‘z yasash modellari haqida so‘z yuritilganda kambag‘allikka oid leksemalarning simmetrik taraqqiyoti jarayoni va hali lug‘atlarda aks etib ulgurmagan yangi terminlarning struktur-semantik xususiyatlarini chuqurroq anglash maqsadga muvofiq.

Til boyligini ko‘rsatkichlaridan biri bu simmetriya xisoblanib, undagi bir tushunchani bir necha usullarda ifodalash imkonini beruvchi sinonimlar, shuningdek, kvazisinonimlar (qisman yoki noaniq sinonimlar)ning mavjudligidir. Sinonimlar boshqa so‘zlardan mos ravishda qo‘shimcha ma’no soyalari, hissiylik, ekspressivlik, stilistik jihati bilan farq qilishi mumkin.

Yuqoridagi lisoniy birliklar “kambag‘allik” semantik maydonining markaz (yadro), pereferiya va uchta segmentni hosil etishda xizmat qiluvchi asosiy lisoniy vositalar hisoblanadi.

“Kambag‘allik” tushunchasining asosiy qismini asimmetrik ma’nosi pereferiya egallaydi, chunki mazkur asimmetrik ma’no boshqa tushunchalar bilan bitta maydonda kesishib ketgan va bir-bir bilan mazmun jihatdan uzviy bog‘lanib, ular mazmun strukturalarni o‘zlarining qo‘shimcha ma’no va belgilari bilan boyitishga xizmat qiladi. Izohli lug‘atlardan olingan misollarni tahlil qilish jarayonida mazkur semantik belgilar “kambag‘al” tushunchasining nutqda amalga oshirishda alohida ajratib ko‘rsatiladi.

Ta’kidlash lozimki, “kambag‘allik” leksemasining asimmetrik ma’nodagi tushunchalari sathida qo‘llanayotgan lisoniy vositalar hajmi til materiallariga o‘ta boy ekanligi ko‘rinib turibdi. Ular katta hajmdagi axborot qatlamini qamrab olmoqda. “Kambag‘allik” tushunchasini ifodalashda ko‘plab vositalar turli yo‘nalishda har xil ma’nolarni aks ettirmoqda. Asimmetriyani amalga oshishida periferiya sathidagi belgilarning bo‘lishi va uning qo‘llanishini to‘la amalga oshishi shart emas, aksincha, mazkur semantik maydonning markazi bo‘lishi zarur.

Shunday qilib, mazkur faslda ko‘rib chiqilgan “kambag‘allik” leksemasini ma’nosiga doir misollar tahlili shuni ko‘rsatdiki, “kambag‘allik” leksemasini 4 ta model yordamida ifodalash aniqlandi:

1) N yoki Adj (sodda tuzilishga ega bir o‘zakli so‘zlar);

2) N+suffix = Adj (ot yasovchi suffiksli yasama so‘z);
3) N+suffix= Adv (ot yasovchi suffiksli yasama so‘z);
4) N+V= V (ot va fe’lli so‘z birikma).

Yuqoridagi “kambag‘allik” tushunchasining simmetrik va asimmetrik strukturasidan ko‘rish mumkinki, biz ushbu leksemaning tilda turli lisoniy vositalar bilan ifodalanishini kuzatdik. Natijada lisoniy birliklar insonning ichki holati, psixologik qobiliyati, fiziologik ko‘rinishi va o‘zini tutishi, tilda sifat, ravish va ot kabi so‘z turkumlari bilan kelib, shaxsning xarakterini ochib berishi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tahlil davomida olingan natijalar asosida simmetrik va asimmetrik strukturalar hamda izohlar namoyishi “boylik va kambag‘allik” leksemasi komponentlarining barcha ma’nolarini tushuntirish imkonini yaratdi. Bizning tomonimizdan olingan konseptual belgilar, ularning o‘zaro aloqadorligi haqida ma’lumot, shuningdek, “boylik va kambag‘allik” semantikasining asimmetrik strukturasining qo‘llanilish chastotasini ko‘rsatdi. Bu, albatta, ushbu nutqda asimmetrik tushunchalarning ijro etilish xususiyatidir. Demak, ushbu nutqda simmetriya o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqotga tortilgan “boylik va kambag‘allik”ning strukturaviy tavsifi bizga simmetrik va asimmetrik tushunchalarini ko‘rsatishda foydalaniladigan turli til vositalarini ma’lum tizimga (tartibga) keltirish imkonini berdi. Yuqoridagi “boylik va kambag‘allik” leksik birikmasining simmetrik va asimmetrik tahlili turli lisoniy birliklar bilan funksional-semantik jihatdan aniq struktura keltirib chiqarishi tasdiqlandi. Uning tarkibiy elementlari yadro tarkibiy qism semantik jihatdan oddiy bo‘lib, semantik maydonning umumiy ma'nosini o‘z ichiga olgan leksik birlik yoki bir nechta birliklardan iborat; markaz – yadroni o‘rab turgan bir qator qatlamlar semantik jihatdan murakkabroq qiymatga ega bo‘lgan leksik birliklardir; periferiya esa asosiy ma’nolari bilan boshqa turdagi semantik maydonlarga kiradigan va ushbu sohaning semantikasini ma’lum til birliklari orqali ifodalovchi ikkinchi darajali qismlardan tashkil topgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yondashuvni qo‘llash va simmetrik hamda asimmetrik tahlilni o‘tkazish, tadqiqot ob’ektini kengaytirish va uni kelajakda qayta ishlash, bizning fikrimizcha, zamonaviy lingvistika metodologiyasini takomillashtirish, semantik va kognitiv yo‘nalishda o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. Образ мира и миры образов. М., “ФАИР-Пресс”, 2001, 291 с.

(2). Вейль Г. Симметрия. 2-е изд., М., Едиториал УРСС, 2003, с. 35–36.

(3). Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Т., “Маънавият”, 2004.

(4). Hornby A.S. OXFORD Advanced Learner’s dictionary. sixth edition. Edited by Sally Wehmeier. OXFORD UNIVERSITY PRESS, 2000, p. 581, 582–583.

(5). Webster’s third international dictionary of the English language. Könemann, 1993.

(6). Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. М., 1997, с. 267–279.

(7). Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления: из научного наследия. М., Яз. славянской культуры, 2001, 864 с.

(8). Ш.Шокиров. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Ф.ф.ф.док. афтореферат., Т., 2020.

(9). Shokirov Sh.I. Turli tizimli tillar persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabat. F.f.dok. aftoref., T., 2026.

(10). John Galsworthy. Apple Tree and other stories [text]. M., изд-во лит. наиностр.яз., 1961.

(11). William Somerset Maugham. Cakes and Ale or the Skeleton in the Cupboard [text]. M., Менеджер, 2000.

Davranov Akmal Akramjonovich (Toshkent davlat Transport universiteti tayanch doktoranti)

DOSTON VA UTOPIYA MATNLARIDA TIL ORQALI JAMIYAT MODELLARI YARATISHNING LINGVISTIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada doston va utopiya matnlarida til orqali jamiyat modellari yaratishning lingvistik jihatlari tadqiq etiladi. Maqolada badiiy va utopik diskursning sotsiolingvistik, pragmatik hamda dialogik xususiyatlari asosida ideal va muqobil jamiyat tasavvurining qanday shakllanishi tahlil qilinadi. Matnlarda konseptual metaforalar, aksiologik birliklar, normativ baholash vositalari va nutq strategiyalari orqali ijtimoiy tuzumning lingvistik modellashtirilishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *doston matni, utopiya, lingvistik modellashtirish, jamiyat modeli, diskurs, sotsiolingvistika, pragmatika, aksiologik maydon, dialogiklik, konseptual metafora.*